

“Uzbekistan Airways” Ajdan rasmiy ma’lumot

2022 24 Fevral

Bugun, 24-fevral kuni ijtimoiy tarmoqlarda HY-9825 Namangan – Krasnodar reysi Urganch shahri aeroportida yoqilg‘i yetishmasligi sababli majburan qo‘nishni amalga oshirdi degan xabar e‘lon qilindi.

“Uzbekistan Airways” Aj axborot xizmati ma’lum qiladi:

Namangandan Krasnodar yo‘nalishi bo‘ylab harakatlanayotgan va qaytishga majbur bo‘lgan samolyotning qaytishi yoqilg‘ining yetishmasligi bilan bog‘liq emas. Ekipaj parvoz amalga oshirilayotgan hududda havo trassalari yopilishi haqidagi ma’lumotni olgan. Shu bilan birga Rossiya Federatsiyasi havo hududidagi vaziyatni aniqlashtirish va qatnovni bajarish yoki jo‘nab ketish aeroportiga qaytish to‘g‘risida uzil-kesil qaror qabul qilish uchun Urganch shahridagi aeroportga qo‘nish talab etilgan.

Hurmatli yo‘lovchilar va kutib oluvchilar, norasmiy manbalar orqali noto‘g‘ri ma’lumotlar olishning oldini olish maqsadida, sizdan Uzbekistan Airways aviakompaniyasining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e‘lon qilinayotgan yangiliklarni kuzatib borishni so‘raymiz